
HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI

????????? Bugun Rishton tumani hokimi, 1-sektor rahbari S. Soliev aholi murojaatlarini o'rganish maqsadida Dorulomon MFYdagi yoshlar bilan uchrashdi. Ochiq va samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda yoshlarga taalluqli barcha dolzarb masalalar keng va to'laqonli qamrab olindi. O'zlarini qiziqtirgan masalalar, yangi g'oya va tashabbuslari, tashvishga solayotgan muammolari yuzasidan tuman hokimiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilib, savollariga javob olishdi.

Yoshlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun dastgoh, imtiyozli kredit, subsidiya asosida mehnat qurollari olish masalalarida murojaatlar kelib tushdi.

E'tiborlisi, mahalla yoshlari boqimandalikka berilmagani, aniq maqsad bilan oldinga intilayotgani quvonarli holat.

2022-08-06 08:35:59